

4. Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. – Т.: Фан, 1992. – 100 с.
5. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. – Buxoro, 1994.– 67 b.
6. Nurov U.N. Buxoro viloyati iqlimi va uning resurslari. – Buxoro, 1996. – 44 b.
7. Петров Ю.М. Бухара. Климат и погода. – Т.: Главгидромет, 1999.– 171 с.
8. Halimova G.S.. Past tog'lar suv resurslari shakllanishining tabiiy geografik omillari va ulardan samarali foydalanish masalalari (Quljuqto'v tizmasi misolida). Geografiya fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2020. – 46 b.

## **BUXORO VILOYATI KO'LLARINING TURISTIK IMKONIYATLARI**

*Shokirov Akobirjon Abrorovich*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti*  
*Tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*  
[shokirovakobirjon7@gmail.com](mailto:shokirovakobirjon7@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ma'lumki mamlakatimiz Yevroosiyo materigining ichida okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi hududimizda adir iqlimli cho'l landshaftining shakllanishi uchun asosiy, shu jumladan, viloyatimiz ham ana shunday cho'l zonasida joylashgan bo'lib, shundan hududni suv resursi va u bilan bog'liq tarzda turizm sohasida foydalanish ham dolzarbdir.

**Kalit so'zlar:** Ko'l, turizm, ichki turizm, rekreatsiya, to'qay, cho'l landshafti, ekoturizm, ovchilik.

**Аннотация.** Нашим долгом и человеческим долгом должно быть экономное использование воды, ее защита, поддержание чистоты и передача ее будущим поколениям. Пословицы «Где вода, там и жизнь», «Где нет воды, жизнь кончается» обычно относятся к пустынной зоне. Как известно, расположение нашей страны внутри материка, вдали от океанов и морей, привело к формированию в наших краях пустынного ландшафта. Кроме того, наш регион находится в такой пустынной зоне, поэтому важно

использовать территорию как водный ресурс и связанный с ним в сфере туризма.

**Ключевые слова:** озеро, туризм, внутренний туризм, рекреация, лес, пустынный ландшафт, экотуризм, охота

**Annotation.** It should be our duty and human duty to use water sparingly, protect it, keep it clean and pass it on to future generations. The proverbs "Where there is water, there is life", "Where there is no water, life ends" usually apply to the desert zone. As you know, the fact that our country is located inside the mainland, far from the oceans and seas, has led to the formation of a desert landscape in our area. In addition, our region is located in such a desert zone, so it is important to use the area as a water resource and related to it in the field of tourism.

**Key words:** Lake, tourism, domestic tourism, recreation, forest, desert landscape, ecotourism, hunting.

Mamlakatimiz hududida 250 ga yaqin ko'llar bo'lib, viloyatimiz hududida 10 dan ortiq katta kichik ko'llar joylashgan. Shular jumlasidan: Dengizko'l, Sho'rko'l, Zamonbobo, Xadicha, Qoraqir, Devxona, Qumsulton va boshqa ko'llar hududdagi muhim suv havzalari hisoblanadi. Bu suv havzalari viloyat hududidagi iqlimning shakllanishida shu bilan birga tuproq, geoeologik holatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ko'llarning tabiiy geografik sharoitlarini, gidrologik xususiyatlarini o'rganish, ulardan qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida samarali foydalanish uchun muhim hisoblanadi. Jumladan turizmning

ba'zi turlarini rivojlantirish uchun voha uchun ancha samarali bo'ladi.<sup>8</sup>

Buxoro viloyati hududi O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon daryosining quyi qismida, janubi-g'arbiy Qizilqumda, berk havzada joylashgan. Viloyat hududi 2 xil landshaftdan iborat, bo'lib ular cho'l 88,6% va voha 11,4% ni egallaydi. Iqlimi keskin kontinental. O'zgaruvchan bahor, uzoq davom etadigan quruq, jazirama yoz, qisqa va o'zgaruvchan kuz, iliq ba'zida esa ayozli qish bilan xarakterli. Buxoro viloyat hududida yog'in miqdori juda kam va notekis taqsimlangan, o'ta qurg'oqchil zonaga mansub. Yillik yong'inlar o'rtacha 90-150 mm atrofida, mumkin bo'lgan yillik bug'lanish esa 2000 mm. Ana shunday tabiiy sharoit va iqlim xususiyati tufayli

<sup>8</sup> .Hikmatov F.H, Aytboyev D.P Ko'lishunoslik | Toshkent 2002

vohada insonlarning dam olishini tashkil etish masalalari ancha murakkab sanaladi. Ammo mavjud imkoniyatdan kelib chiqib suv havzalari turizmning bir qancha turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Masalan ekoturizm, sohil turizmi, ovchilik turizmi kabilar shular jumlasidandir.

Viloyatda tabiiy oqar suv manbalari yo'q. Bugungi kunda asosiy suv manbayi, 1962-1975 yillarda qurilgan Amu-Buxoro mashina kanalidir. Kanal orqali Amudaryodan har yili 4,2 – 4,8 km<sup>3</sup> suv olinadi va relyef nishabligiga teskari yo'nalishda Buxoro, Qorako'l, Qorovulbozor vohalariga oqiziladi. Buxoro viloyati qishloq va suv xo'jaligi ma'lumotlariga ko'ra jami sug'oriladigan maydon 277720 ga ni tashkil qiladi. Obikor yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovurlar tizimi yaratilgan bo'lib, ular orqali oqava suvlar Oyoqog'itma, Sho'rko'l, Qoraxotin, Qoraqir, Zamonbobo, Katta Tuzkon, Kichik Tuzkon, Sho'rko'l-Qamishli, Dengizko'l, Devonxona kabi o'ndan

ortiq ko'llarga oqizilmoqda. Ayniqsa, Qorovulbozor tumanining janubiy qismida ularning maydoni yillar o'tgan sayin ortib bormoqda. Keyingi 30 yil ichida Devonxona-1, Devonxona-2, Xadicha va so'nggi bir necha yil davomida Qumsulton ko'llari hosil bo'lgan. Suvli landshaftlarning umumiy maydoni 82125 gektar (2,0 %). Buxoro viloyati ko'llari asosan zovur suvlari asosida shakllangan bo'lib aholi yashash manzillaridan chetda tekislikning turli xil yo'llar bilan hosil bo'lgan chuqurlik va botiqlarda to'plangan. Viloyatimizning janubi-g'arbida joylashgan zovur suvlaridan hosil bo'lgan Zamonbobo ko'li joylashgan. Qorako'l tumanidagi joylashgan sayoz ko'l hisoblanadi. Ko'lning dengiz sathidan balandligi 190 m. Umumiy maydoni 8 ming gektar. Eng chuqur joyi 5-6 m o'rtacha chuqurligi 2-3 m. Suv sig'imi 150mln m<sup>3</sup>. Hozirgi kunda suv sig'imi 72 mln m<sup>3</sup> suv olish manbasi Markaziy Buxoro zovuri. Porsonko'l kollektori orqali Amudaryoga tashlanadi.<sup>9</sup>

<sup>9</sup> Toshov X.R, Rahimov O.H, Hikmatova G.I | Suv qadri Buxoro, 2018



### Zamonbobo ko'lining ko'rinishi

Zamonbobo ko'li va uning atrofi haqida bir qancha ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu hududda qadimdan insonlarning yashab kelganligini isbotlovchi bir qancha dalillar topilgan. Arxeolog olimlar tomonidan olib borilgan qazishma ishlari natijasida bu yerda qadimgi aholi manzilgohining qoldiqlari topilgan. 1961 yilda Ahmadali Asqarovning o'rganishlari natijasida Darboza qiridan ko'l atrofiga keladi va undan 500 m chamasi sharqda Gurdush daryosi irmog'ining o'ng sohilida qadimiy makonning borligini aniqlaydi. Zamonbobo ko'li turizmning qator turlarini rivojlantirish uchun qulaydir. Xususan Qorako'l va Olot tumani aholisining mavsumiy dam olishi uchun qulay geografik hududda joylashgan. Zamonbobo ko'lidan

turizm uchun samarali foydalanish yo'llari quyidagilar:

- Ko'lga olib boradigan yo'lni qulay infrastruktura ega zamonaviy va qulay qilib ta'mirlash
- Ko'l atrofidagi to'qay lanshaftlarida ekoturizmni rivojlantirish chora – tadbirlarini ko'rish
- Ko'lda mavsumiy tarzda ovchilik turizmni rivojlantirish
- Ko'l atrofidagi cho'lda bahor mavsumida milliy bayram va xalq o'yinlarini tashkil etish uchun qulay sharoitlarni yaratish
- Ko'l atrofida dam olish uchun tashrif buyuruvchi mahalliy va chet ellikliklar uchun o'tov va mehmonxonalar tashkil etish
- Peshku tumanida joylashgan Qoraqir ko'li ham ekoturizm markazi sifatida mashhurdir. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu tuman o'zining tabiiy joylari va qadimiy

yodgorliklari, shu jumladan 12 ta arxeologik, 12 ta me'moriy va taniqli tarixiy yodgorlik - Xuja Peshku ansambli bilan ham mashhur.

Qoraqir ko'li va Ekologik markazda joylashgan o'rmon va ovchilik xo'jaligiga alohida e'tiborga sazovor.

Markaz, Buxorodan 40 km uzoqlikda joylashgan bo'lib ovchilik turizmiga ixtisoslashgan.

Markazning maydoni o'n ikki ming gektarni tashkil etadi.

Markaz, "Bukhara Hunting" MChJ tomonidan tashkil etilgan bo'lib, baliq ovi, ov hamda "yovvoyi" dam olish havaskorlariga ko'olab dam olish turlarini taklif etadi.

Agar baliq ovi haqida gapiradigan bo'lsak, unda Qoraqir ko'li mazali va yirik baliqlarni sevuvchilar uchun eng yaxshi joydir. Bu yerda zog'ora, oqqayroq, xumbosh, sudak, ilonbaliq va albatta qumli chuqurliklar qiroli-laqqa baliq yashaydi!

Oyoqog'itma ko'li — Buxoro viloyati shimolidagi Oyoqog'itma qishlog'i yaqinidagi ko'l. Oyoqog'itma botig'ida. Oyoqog'itma ko'liga Buxoro va Navoiy viloyatlari ekin maydonlaridan chiqadigan sizot va oqova suvlardan hosil bo'lgan Sho'rko'l kollektori quyiladi. Suv yuzasi maydoni yoz oylarida 60 km<sup>2</sup> gacha ortadi, shu vaqtda chuqurligi 10 m dan ortadi, kuzda suv yuzasi maydoni kichrayadi, suvi sho'r.

Baliqlarning sazan, do'ngpeshona, laqqa kabi turlari uchraydi. Ko'l atrofi qamishzor, botqoqlik, qushlarga boy. Yuqorida aytilgan ta'riflarni barchasini jamlaydigan bo'lsak ekoturizm uchun ajoyib tabiiy sharoitlarni mujassamlashganligi guvohi bo'lishimiz mumkin.

Dengizko'l — Buxoro viloyati Olot tumanidagi ko'l. Muhammad Narshaxiy (10-asr) bu ko'l haqida "kengligi yigirma farsax (140-160 kilometr) bo'lib, Buxoro daryosining ortiqcha suvi shu ko'lga yig'ilgan, unda suv jonivorlari ko'p, butun Xurosonda bu yerdagidek miqdorda qush va baliq tutilgan emas", deb yozgan. Ko'l viloyatning Janub chekkasidagi (Zarafshon daryosining quyi oqimida) tektonik botikda, dengiz sathidan 181,5 metr balandda joylashgan. Dengizko'lga bir qancha kollektor-zovurdan keladigan tashlama suv va ekin maydonlarini sug'orish natijasida hosil bo'lgan sizot suvi kelib quyiladi. Dengizko'lga shamol ta'sirida alinlikda osh tuzi bilan qoplangan. Dengizko'l suvi shifobaxsh. Dengizko'l ham asosan ekoturizm uchun qulay imkoniyatlarga ega. Ko'l atrofida neft-gaz sanoati uchun zarur konlar mavjudligini inobatga olgan holda, ishchilar uchun zarur dam olish tuzilmasini yaratish juda zarur.

- Umumiy holatda raz solganimizda Buxoro viloyatida ko'llar ichishga yaroqsiz tashlan bo'lsa ham turizmning qat turlarini rivojlantirish uchun ju- ahamiyatli sanaladi. Voha sharoitc jazirama yoz va iliq kuz-bah fasllarida insonlarni dam olis uchun qator sharoitlarni yaratish zarurdir. Shuni inobatga olis viloyat ko'llar bu borada yaxshigir imkoniyatlar taqdim etadi. Faq buning uchun yetarli darajac infratuzilmani yo'lga qo'yish zarur
- Viloyat ko'llari asosan aholi manzilgohlaridan yiroqda bo'lganligi sababli dam oluvchilar uchun transport va yo'l infratuzilmasini yaxshilash va turistik marshrutlarni tashkil etish
  - Chet ellik turistlarga ekoturizm manzilgohlari sifatida ko'llarni tanishtirish va ekoturistik tizim yaratish. Sohil turizmi va ekoturizm saytlarini tashkil etish. Bunda batafsil ma'lumotlarni bazasini yaratish, sayyohlarni to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash. Ziyorat va tarixiy-madaniy turizm marshruti bo'yicha tashrif buyurgan turistlar oqimini ko'llarning turistik manzilgohlariga jalb etish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Hikmatov F.H, Aytboyev D.P Ko'lshunoslik Toshkent 2002
  - 2.Toshov X.R, Rahimov O.H, Hikmatova G.I Suv qadri Buxoro, 2018.
  - 3.O'zbekiston geografiya jamiyati Buxoro viloyati bo'limi geografiya kafedrası "Geografiya fanining nazariy-amaliy muammolari" Respublika ilmiy nazariy-amaliy konferensiyasi materiallari Buxoro 2006
- Internet malumotlari:
- 4.Geografiya.uz
  - 5.tarix.uz